

Cho'lpon she'rlarning tahlili

Asqaraliyeva Dilshoda Xojiakbar qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

Tel: (94)492 12 34

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning she'riyatida ifodalangan o'zgacha o'xshatishlar, badiiy san'atlar va ularning ma'nolari yoritib o'tilgan. Ma'lumki, Cho'lpon badiiy uslubi boshqalarga o'xshamaydi, u go'zal va takrorlanmasdir. U har bir o'quvchini o'ziga rom eta oladi. Maqolada Cho'lponning ayrim she'rlarida ifodalangan tag ma'no, metaforalar izohlab yoritilgan o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Cho'lpon uslubi, badiiy san'atlar, metaforalar, Cho'lpon she'rlarining badiiy tahlili, intoq, tag mano, semvalistik yo'nalish.*

Artistic analysis of Cholpon's poems

Annotation: *In this article, special similes, artistic arts and their meanings expressed in the poetry of Abdulhamid Sulaymon's son Cholpon are highlighted. It is known Cholpon's artistic style is not like others, it is beautiful and unique. It can captivate every student. In this article, the meaning and metaphors expressed in some poems of Cholpon are explained and illuminated.*

Keywords: *Cholpon style, artistic arts, metaphors, artistic analysis of Cholpon's poems, intak, deep meaning, symvalistic direction*

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yashab ijod qilgan Cho'lpon nasrda ham, nasrda ham birdek barakali ijod qilgan. Cho'lpon she'riyati tahlil qilar ekanmiz, unda o'zgacha o'xshatishlar, ma'nolar borligini ilg'ab olishimiz mumkin. Shoir semvalistik yo'nalishda ijod qilgan, ya'ni uning she'rlari ko'rinishidan boshqa ma'no anglatasa-da, asli uning mohiyati juda chuqurdir.

Zulm –keng ma'noli tushuncha. Mustamlakachilik davrida el-yurt boshiga tushgan

barcha savdolarni, faqat bir so'z-zulm bilan ifodalash mumkin. Shoirning "Vijdon erki" she'rida ana shu zulm qoralangan:

Ay tutqinlar, ay ezilgan,
Ay qiynalgan, yo'qsil ellr,
Ay umidsiz, ay chizilgan
Dor oldiga... oppoq dillar

Shoir ushbu misralari orqali adolatsizlikni haqqoniy ochib bergan. "Dor oldiga...oppoq dillar" misrasida esa betakror metafordan foydalanilgan. Darhaqiqat, dor ostiga, faqat ko'ngli oq, qalbi toza xalq olib kelinganligi ana shu davrdagi zulmni yaqqol ifoda etgan.

Kuz chog'I... tuproqlar gezarib qoldilar,
Gezarib qoldilar kuz chog'I turoqlar.

Mazkur misralar Cho'lponning "Xazon" she'ridan olingan misralar bo'lib, "tuproqlar gezarishi" orqali tashxis san'atidan mohirona foydalanilgan. Hatto, tabiat ham o'sha davrdagi tuzumdan norozidek go'yo.

So'ng damda yaproqlar qizorib yondilar,
Qizorib yondilar so'ng dam yaproqlar.

Odatda, daraxtning barglari qizg'ish yoki sarg'ish bo'lganligi bois ko'p hollarda "oltin" so'zini qo'shish orqali metafora yuzaga keltiriladi. Lekin shoir yaproqlarni "qizartirib yondirgan". Tuproq gezarishi, yaproq yonishi orqali kuz fasli tasvirlanayotganini sezish mushkul emas.

Kuz qo'ynida turgan shoir "Bahorni sog'indim" der ekan, bahor shunchaki yil fasligina emas, balki majoziy ma'no ham kasb etadi. Shoir uchun mustamlakachilik davri go'yo kuz izg'irini kabi bo'lsa, bahor istiqlol va porloq kelajakni ifoda etadi:

Sarg'aygan yaproq
Bo'yanib tuproq,
O'la boshladi, o'la boshladi...
Yo'q... o'lim yo'qdir!

Yaproqni sarg'aytirib, tuproqni bo'yantirgan shoir o'lim yo'qligini ta'kidlaydi. Asli bu o'zini-o'zi ruhlantirish, ya'ni Cho'lpon yashagan zamonga nazar solsak,

bolsheviklar hukmronligi davri va u davrda adolatsiz o'limlar ko'plab uchraydi. Ayni shu paytda Cho'lponning o'zi ham nohaq o'ldirilganini eslab o'tish lozim.

Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir...

Ushbu misralar shoirning "Xalq" she'ridan olingan bo'lib, unda xalqni dengizga, to'lqinga, kuchga, isyon, olov va o'chga o'xshatib yana bir betakror tasvidan foydalanilgan.

Xalq isyoni saltanatni yo'q qildi,

Xalq istadi, toj va taxtlar tiqildi.

Ya'ni, yuqoridagi misralar xalqni ruhlantirish uchun yozilgan bo'lib, unda hamma narsa xalq xohishiga bog'liqligi, faqar xalq bir jamoa bo'lib harakatlanmog'i lozimligi uqtirilgan.

Xayol va haqiqat... Bu ikkisi har doim ham bir-biriga uygun bo'lavermaydi. Hayot qonunlariga xayol, xayol o'ylariga esa hayot bo'ysunmaydi, ba'zan. Xayollarimiz shirin va go'zal, haqiqat esa achchiq va qo'rqinchli bo'ladi. Ushbu fikrlarimiz

isboti o'laroq Cho'lponning "Xayol" she'riga yuzlanamiz:

Xayol, xayol... Yolg'iz xayol go'zaldir,

Haqiqatning ko'zlaridan qo'rqaman.

Xayoldagi yulduzlarkim, amaldir,

Olovimni alar uchun yoqaman.

Go'zal xayol, kel, boshimda gul o'ynat,

Manim istak-tilagimni erkalat!

Haqiqatning ko'zlari-juda go'zal tasvir. Shoir istak-tilaklarining ro'yobi ham aynan xayolda, afsuski, u haqiqatga aylanganicha yo'q. Cho'lpon o'zining xayolot dunyosida qurgan maftunkor olamida yashaydi va bu olamning yolg'onligini bilsada, undan voz kechgisi kelmaydi.

Ko'ngil, sen munchalar mega

Kishanlar bilan do'stlashding?

Na faryoding, na doding bor,

Nechun sen muncha sustlashding?

Mazkur misralar “Ko’ngil” she’ridan olingan bo’lib, ko’ngilning kishanlar bilan do’stlashuvi va bu do’stlashuvdan u na faryod, na dod solishi kabi ajoyib obraz uchraydi. Cho’lpon mahoratining naqadar buyukligi uning har bir sh’erini tahlil qilishda namoyon bo’ladi.

Cho’lpon-o’zbek adabiyoti osmonining eng yorqin yulduzi. Shoir she’rining har bir satrida o’zgacha tarovat, hech kimda uchramas obraz, timsol va o’xshatishlar mavjud. Darhaqiqat, Abdulhamid Sulaymon o’g’li Cho’lpon nazmda qalam tebratgan, nasrda o’zining yo’nalishi orqali barcha kitobxonlar ko’nglidan joy olgan nafaqat shoir, balki yozuvchi va tarjimon hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ernazar Yorbekov- 2017-yil
- 2.Ma’rufjon Yo’doshev-2022_ Toshkent “Ma’naviyat”